

“Suvxo‘jaliknazorat” inspeksiyasining
2024-yil 1-apreldagi 21-sonli
buyrug‘iga 8-ilova

**“Suvxo‘jaliknazorat” inspeksiyasi va tizim tashkilotlariga aloqa kanallari
orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarni
qabul qilish va ko‘rib chiqish
REGLAMENTI**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Reglament “Suvxo‘jaliknazorat” inspeksiyasi (keyingi o‘rinlarda – Inspeksiya) va tizim tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish, manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash va tegishli ta’sir choralarini ko‘rishga qaratilgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish maqsadida ishlab chiqilgan.

2. Mazkur Reglament Inspeksiyadagi aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar haqida kelib tushgan xabarlar bilan ishlashning asosiy tamoyillari, shuningdek, xabarlarni qabul qilish, ularni ro‘yxatdan o‘tkazish va ko‘rib chiqish, shuningdek, Inspeksiya boshlig‘iga hisobot taqdim etish tartibini belgilaydi.

3. Mazkur Reglament maqsadlarida quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

ishonch telefoni – Inspeksiyaga telefon orqali kelib tushadigan murojaatlarni markazlashgan holda qabul qilish, tasniflash va tizimlashtirish, shuningdek, o‘z vaqtida va sifatli ko‘rib chiqilishini monitoring qilish imkonini beruvchi tizim;

murojaatchi – aloqa kanallari orqali Inspeksiyadagi korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida axborot berish uchun murojaat qilgan har qanday jismoniy va (yoki) yuridik shaxs, xodim;

manfaatlar to‘qnashuvi – shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir ko‘rsatayotgan yoxud ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, Inspeksiyalarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyat;

korrupsiya – shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

korrupsiyaviy harakatlar – xodim tomonidan bevosita yoki bilvosita shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali pora beruvchi manfaatlari yo‘lida harakat

yoki harakatsizlik uchun moddiy manfaatdor bo‘lishi, shu jumladan, pul, qimmatbaho qog‘oz, boshqa ko‘rinishdagi mulk va mulkiy huquqlar, mulkiy xarakterdagi xizmatlar olish, talab qilish, undirish, taklif qilish yoki berish, pora berish va/yoki olish yoki bunda vositachilik qilishda, rasmiyatichiliklarni soddalashtirish uchun to‘lovlar undirish (pora olish) va boshqa noqonuniy maqsadlarda o‘z xizmat vazifalaridan noqonuniy foydalanish;

korrupsiyaga oid huquqbuzarlik – korrupsiya alomatlariga ega bo‘lgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi – amaldagi qonunchilik va ichki hujjatlarni korrupsiyaviy jihatdan buzilishini bartaraf etish, Inspeksiya xodimlari tomonidan yuqori darajada kasbiy va axloqiy faoliyat olib borishlarini ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar majmui;

korrupsiyaviy xavf-xatar – xodimlar yoki uchinchi shaxslar tomonidan Inspeksiya nomidan va (yoki) ularning manfaatlarini ko‘zlab korrupsiyaviy harakatlarni sodir etish xavfi;

taalluqli xabar – Inspeksiyadagi korrupsiyaviy harakatlar va (yoki) manfaatlar to‘qnashuvi haqidagi axborotdan iborat bo‘lgan xabar;

xodim – Inspeksiya bilan mehnat munosabatlariga kirishgan shaxs;

xodimning shaxsiy manfaatdorligi – xodim tomonidan o‘z xizmat vazifalarini bajarishi chog‘ida o‘zi yoki uchinchi shaxslarning manfaatlari yo‘lida xodimning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan pul mablag‘lari, moddiy yoki nomoddiy boyliklar, boshqa mol-mulk va imtiyozlar ko‘rinishida shaxsiy naf olish imkoniyati (shaxsiy, ijtimoiy, moliyaviy, siyosiy va boshqa tijoriy yoki notijoriy manfaatlari).

4. Inspeksiya korrupsiyaviy harakatlar haqida axborot berishga mo‘ljallangan aloqa kanallarining ishini quyidagi tamoyillar asosida tashkil etadi:

konfedensiallik va xavfsizlik – aloqa kanallaridagi xabarlardan foydalanishga ruxsat berilgan Inspeksiyaning barcha vakolatli shaxslari ushbu xabarlarni vakolatga ega bo‘lmagan shaxslarga berish (oshkor qilish) ga haqqi yo‘q. Agar murojaatchi o‘z xabarini yuborganligi haqida boshqa xodimlarga yoki uchinchi shaxslarga o‘z xohishiga ko‘ra, jumladan, ehtiyyotsizligi natijasida oshkor qilgan bo‘lsa, Inspeksiya uning oshkor bo‘lishiga javobgar bo‘lmaydi;

qonuniylik – Inspeksiya aloqa kanallariga kelib tushadigan xabarlarni qabul qilish, ro‘yxatga olish, qayta ishslash va ko‘rib chiqish qat’iy ravishda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablari va ushbu Reglamentga muvofiq amalga oshiriladi;

murojaatchining ta’qib qilinmasligi – aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy harakatlar haqida o‘z xohishiga ko‘ra xabar bergen jismoniy va yuridik shaxs,

xususan, Inspeksiya xodimi xabarning mazmunidan qat'i nazar biron-bir javobgarlikka tortilmaydi;

murojaatchi bilan majburiy tartibdagi qayta aloqa – agar xabar anonim bo‘lmasa, uni ko‘rib chiqish natijalari Inspeksiya tomonidan murojaatchiga yetkazilishi lozim;

ta’sir choralarini qo‘llashning majburiyligi – korrupsiya fakti tasdiqlangan taqdirda, Inspeksiya aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish uchun O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq harakat qiladi.

2-bob. Korrupsiyaga oid harakatlar haqida axborot berish uchun aloqa kanallari

5. Taalluqli xabar quyidagi aloqa kanallaridan yuborilishi mumkin:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi (<https://pm.gov.uz/>) orqali;

Inspeksiyaning rasmiy [veb-sayti v-nadzor.gov.uz](#) orqali;

Inspeksiyaning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy kanal va sahifalari Facebookdagi rasmiy sahfasi

<https://www.facebook.com/profile.php?id=61558060948025> orqali;

Inspeksiyaning +99855-520-71-66 raqamli ishonch telefoni orqali va (371) 226-71-66 ish telefon raqamlari orqali;

Inspeksiyaning telegram boti

Inspeksiyaga og‘zaki (shaxsan) murojaat qilish;

huquqni mahofaza qiluvchi organlar orqali;

mazkur Reglamentda ko‘rsatilmagan boshqa aloqa kanallari.

6. Inspeksiya aloqa kanallari to‘g‘risidagi axborotni rasmiy veb-sayt, va ijtimoiy tarmoqdagi sahifa va kanallariga joylashtiradi, shuningdek, xodimlarga davriy ravishda yuboriladigan elektron xatlar tarqatmalariga va o‘quv materiallariga kiritadi, Inspeksiya binosida joylashtiriladigan tematik plakatlar va hokazolarda aks ettiradi.

3-bob. Aloqa kanallari orqali kelib tushayotgan taalluqli xabarlarni qabul qilish

7. Inspeksiyaning Korrupsiyaga karshi kurashish va komplayens nazorat bo‘yicha mas’ul xodim (keyingi o‘rinlarda – Korrupsiyaga karshi kurashish va komplayens nazorat bo‘yicha mas’ul xodim) Inspeksiyaning aloqa kanallaridan kelib tushgan taalluqli xabarlarni ko‘rib chiqishga mas’ul hisoblanadi.

8. Inspeksiyaning quyidagi aloqa kanallaridan kelib tushgan taalluqli xabarlar Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 7-maydagi 341-sonli qarori bilan tasdiqlangan

Davlat organlarida, davlat muassasalarida va davlat ishtirokidagi Inspeksiyalarda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishslash tartibi to‘g‘risidagi namunaviy nizom va Inspeksianing jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishslash tartibi to‘g‘risidagi nizom talablarida nazarda tutilgan tartibda ro‘yxatga olinadi va rezolyusiya uchun Inspeksiya boshlig‘iga chiqariladi:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali;

Inspeksianing rasmiy veb-sayti yoki elektron pochtasi orqali;

Inspeksianing telefon raqamlari orqali (ishonch va boshqa ish telefon raqamlari orqali);

Inspeksiyaga og‘zaki (shaxsan) murojaat qilish;

huquqni muhofaza qiluvchi organlar orqali.

9. Inspeksianing ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy kanal va sahifalari va telegram boti orqali kelib tushadigan xabarlarni qabul qilish uchun Korrupsiyaga karshi kurashish va komplayens nazorat bo‘yicha mas’ul xodim tayinlanadi.

Bunda, taalluqli xabar kelib tushganda Korrupsiyaga karshi kurashish va komplayens nazorat bo‘yicha mas’ul xodim murojaatchi bilan elektron yozishma yo‘li bilan yoki telefon orqali bog‘lanib zarur axborotni aniqlashtiradi, xabarni Reestrda ro‘yxatga oladi va ma’lumotni Inspeksiya rahbariga kiritadi.

Korrupsiyaga karshi kurashish va komplayens nazorat bo‘yicha mas’ul xodim kelib tushadigan xabarlarni dushmanbadan jumagacha soat 09:00 dan 18:00 ga qadar tahlil qiladi. Agar xabar ish vaqtidan tashqari paytda kelib tushsa, bu xabar navbatdagi ish kunida aniqlashtirish uchun saqlanadi.

10. Agar murojaatchi o‘z xabarini tasdiqlash uchun qo‘srimcha materiallarga, masalan, fotomateriallara, hujjatlar, audio va videoyozuvlarga ega bo‘lsa, murojaatni qabul qilishga mas’ul xodim ularni taqdim etish bo‘yicha foydalilaniladigan aloqa kanallarini (telegram boti yoki elektron pochtasi)ni ko‘rsatadi va taqdim etiladigan ma’lumotni konfedensialligini bildiradi. Mazkur ma’lumotlar taalluqli xabarga ilova sifatida rasmiylashtiriladi.

11. Inspeksiya rahbari taalluqli xabarni tezkorlik bilan tahlil qilish va ko‘rib chiqish uchun Inspeksianing Korrupsiyaga karshi kurashish va komplayens nazorat bo‘yicha mas’ul xodimga topshiriq tushiradi.

12. Inspeksianing Korrupsiyaga karshi kurashish va komplayens nazorat bo‘yicha mas’ul xodim taalluqli xabarni olgandan keyin 1 (bir) soat ichida uni ilovaga muvofiq shaklda Inspeksiyada korrupsiyaga oid harakatlar haqidagi xabarlarni qabul qilish reestrda (keyingi o‘rinlarda – Reestr) ro‘yxatga olishi va ushbu Reglamentning 4-bobiga muvofiq ko‘rib chiqishi lozim.

13. Inspeksiya murojaatchilarga xodim tomonidan sodir etilgan korrupsiyaviy harakatlar to‘g‘risida anonim xabarlar qoldirish imkoniyatini beradi.

Anonim xabar kelib tushgan taqdirda Inspeksianing ma’sul xodimi, imkon mavjud bo‘lgan taqdirda, quyidagilarni amalga oshirishi lozim:

Inspeksiyaga kelib tushgan xabarga javob berish uchun murojaatchi bilan bog‘lana olmasliklari mumkinligi haqida ma’lum qilishi;

qo‘sishimcha zarur ma’lumot olish imkoniyati bo‘lmagan taqdirda xabarni to‘liq va har tomonlama o‘rgana olmasliklarini bildirishi;

murojaatchiga u bilan bog‘lanish uchun anonim aloqa kanali tashkil qilishni taklif qiladi (shaxs ko‘rsatilmagan elektron pochta manzili, Telegramdagi maxfiy chat va boshq.);

Murojaatchi o‘z arizasidan voz kechmagan taqdirda, mazkur Reglamentda nazarda tutilgan tartibda xabarni qabul qilishi shart.

14. Inspeksiya xodimlari tomonidan olingen xabarlarni ko‘rib chiqish jarayonida korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni sodir etishning sabab va sharoitlari ham tahlil qilinadi va kelgusida ularning oldini olish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha tadbirlar amalga oshiriladi.

15. Olingan xabarlar bo‘yicha barcha taalluqli materiallar, hujjatlar va ma’lumotlar (shu jumladan, qabul qilingan qarorlar va murojaatchilarga yuborilgan javoblar) Murojaatlar bilan ishlash tuzilmasida O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi belgilangan muddatga, shu bilan birga 10 yildan kam bo‘lmagan muddatga saqlanishi kerak.

16. Taalluqli xabar Inspeksianing hududiy va tarkibiy bo‘linmalarga kelib tushgan taqdirda, uni qabul qilgan mas’ul xodimlar zudlik bilan yozma shaklda hududiy (tarkibiy) bo‘linma rahbari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha mas’ulni (mayjud bo‘lsa) kelib tushgan xabar to‘g‘risida xabardor qiladi, ular o‘z navbatida ushbu xabarni Inspeksianing markaziy apparatidagi Korrupsiyaga karshi kurashish va komplayens nazorat bo‘yicha mas’ul xodimga yuboradi. Korrupsiyaga karshi kurashish va komplayens nazorat bo‘yicha mas’ul xodim olingen xabarni 11-bobida bayon etilgan tartibga muvofiq ko‘rib chiqadi.

17. Inspeksianing hududiy va tarkibiy bo‘linmalari o‘zlarining Reestrini yuritadi.

4-bob. Korrupsiyaviy harakatlar haqidagi xabarlarni ko‘rib chiqish

18. Korrupsiyaga karshi kurashish va komplayens nazorat bo‘yicha mas’ul xodimga kelib tushgan barcha taalluqli xabarlar ushbu tuzilmaning mas’ul xodimlari

yoki Inspeksiya rahbari topshirig‘iga asosan boshqa bo‘linmalar tomonidan ko‘rib chiqiladi.

19. Korrupsiyaviy harakatlari to‘g‘risidagi xabarlarni ko‘rib chiqish jarayoniga, harakatlari ustidan taalluqli xabar kelib tushgan yoki ko‘rib chiqish jarayonida manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xodimlarni jalg qilish man etiladi.

20. Taalluqli xabar kelib tushganda Korrupsiyaga karshi kurashish va komplayens nazorat bo‘yicha mas’ul xodim xodimi dastlabki tekshirish o‘tkazib, uning taalluqlilagini tahlil qiladi, ya’ni xabarda ko‘rsatilgan ma’lumotning Inspeksiya tizimiga taalluqli korrupsiyaga oid huquqbazarlikka va (yoki) manfaatlar to‘qnashuviga tegishlilagini tekshiradi.

Dastlabki tekshirish taalluqli xabar Korrupsiyaga karshi kurashish va komplayens nazorat bo‘yicha mas’ul xodimga kelib tushgan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida amalga oshiriladi.

21. Mazkur Reglamentning 19-bandida nazarda tutilgan dastlabki tekshirish natijalaridan qat’i nazar, bu haqdagi axborot Reestriga kiritiladi.

22. Agar Korrupsiyaga karshi kurashish va komplayens nazorat bo‘yicha mas’ul xodim xodimi xabar taalluqli emas degan xulosaga kelsa, bu xabar bir ish kuni ichida Inspeksiyaning tegishli tuzilmasiga bildirgi asosida o‘tkazilishi lozim.

23. Agar xabarda korrupsiyaviy harakatlar va (yoki) manfaatlar to‘qnashuvi haqida ma’lumot hamda xizmat tekshiruvini o‘tkazish uchun yetarli asoslar mavjud bo‘lsa, Korrupsiyaga karshi kurashish va komplayens nazorat bo‘yicha mas’ul xodim xodimi ichki idoraviy hujjatda belgilangan tartibda xizmat tekshiruvini o‘tkazish tashabbusi bilan chiqadi.

24. Taalluqli xabarlarni mazmunan ko‘rib chiqish Inspeksiyaga kelib tushgan kundan e’tiboran bir oy ichida, tekshirish o‘tkazish, qo‘srimcha materiallarni so‘rab olish yoxud boshqa chora-tadbirlar ko‘rish zarur bo‘lgan hollarda, ularni ko‘rib chiqish muddatlari, Inspeksiyaning rahbari tomonidan istisno tariqasida uzog‘i bilan bir oyga uzaytirilishi mumkin, bu haqda murojaat etuvchiga (anonim murojaatlardan tashqari) xabar qilinadi.

25. Murojaatga javob Korrupsiyaga karshi kurashish va komplayens nazorat bo‘yicha mas’ul xodim tomonidan tayyorlanib, Inspeksiya rahbari imzosi bilan rasmiylashtiriladi.

26. Taalluqli xabarlarni ko‘rib chiqish yakunlariga ko‘ra o‘rganish natijalari va qo‘llanilgan ta’sir choralarini ko‘rsatilgan javob xati tayyorlanadi va belgilangan tartibda murojaatchiga yuboriladi.

27. Ijtimoiy tarmoqdagi kanal va sahifalar va telegram-bot orqali kelib tushgan taalluqli xabarga javob murojaatchiga elektron shaklda ijtimoiy tarmoqdagi kanal va sahifalar yoki telegram-bot orqali yuboriladi.

5-bob. Hisobdorlik

28. Reestr dan Korrupsiyaga karshi kurashish va komplayens nazorat bo'yicha mas'ul xodimi, xabarlarni ko'rib chiqishda ishtirok etgan tegishli boshqa davlat organlari va Inspeksiyalarining xodimlari (faqat shunday xabarlarga doir), Inspeksiya rahbari yoki rahbarning korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishini nazorat qiluvchi o'rinnbosari foydalanishi mumkin.

29. Reestr ma'lumotlari asosida Korrupsiyaga karshi kurashish va komplayens nazorat bo'yicha mas'ul xodim har chorakda Inspeksiya rahbariga qabul qilingan korrupsiyaviy harakatlar to'g'risidagi xabarlarga taalluqli bo'lgan hisobotni taqdim etadi va unda quyidagilar ko'rsatiladi:

elib tushgan taalluqli xabarlar va ko'rib chiqilgan taalluqli xabarlar soni;
korrupsiyaviy harakatlar, manfaatlar to'qnashuvi holatlari tasdiqlangan taalluqli xabarlar soni;
ko'rib chiqish muddatlari buzilgan taalluqli xabarlar soni;
taalluqli xabarlarni ko'rib chiqishning o'rtacha muddati;
murojaatchilar tomonidan eng ko'p foydalaniladigan aloqa kanallari va boshqa statistik ma'lumotlar.

6-bob. Yakuniy qoida

30. Mazkur Reglament talablarini buzish belgilangan tartibda javobgarlikka sabab bo'ladi.

31. Mazkur Reglament, murojaatlar va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi o'zgarganda qayta ko'rib chiqilishi lozim.

“Suvxo‘jaliknazorat” inspeksiyasi va tizim tashkilotlarida aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish reglamentiga ilova

Inspeksiyada korrupsiyaga oid harakatlar haqidagi xabarlarni qabul qilish REESTRI

Nº	Xabar kelib tushgan sana	Hudud
1.	Xabarning toifasi (korrupsiyaviy xattiharakat, manfaatlar to‘qnashuvি)	Murojaatlar bilan ishlash tizimida ro‘yxatga olingan sana va raqami
2.	Xabar yuborilgan aloqa kanali	Murojaatchi ma’lumotlari (jismoniy yoki yuridik shaxs, qayta aloqa ma’lumotlari)
⋮	Xabarning qisqacha mazmuni	Xabar taalluqli bo‘lgan tuzilma
	Ko‘rib chiqish matijalari qanoatlanТИrlidi/ tushuntirish berildi/ ko‘rmasdan qoldirildi	Murojaatchiga javob yuborilgan sana va xatraqami
	Ijrochi	Xabarni ko‘rib chiqqan tuzilma rahbari
		Izoh